

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2024 yildagi PQ-231-son

Kuchga kirish sanasi

25.06.2024

Qo'shimcha axborot

Ulashish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TASHKILOTLARI XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etish maqsadida:

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining:

Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti negizida A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutini (keyingi o'rinlarda — Institut) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarini (keyingi o'rinlarda — Hududiy markazlar) tashkil etish;

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasarrufidagi Respublika pedagogik ta'lim resurs markazi faoliyatini ularni Institutga qo'shish orqali tugatish;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim tashkilotlarining xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirokini ta'minlash uchun Institut tuzilmasida uning umumiy shtat birliklari doirasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Xalqaro tadqiqotlar markazini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Quyidagilar:

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining asosiy vazifalari [1-ilovaga](#) muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq;

2030-yilgacha maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlar [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini (keyingi o'rinlarda — xodimlar) qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimi joriy qilinadi. Bunda:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (keyingi o'rinlarda — Maktabgacha ta'lim instituti) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bo'ysunuviga o'tkaziladi;

Hududiy markazlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish faoliyati Maktabgacha ta'lim instituti tomonidan muvofiqlashtiriladi;

maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mavjud quvvatlarni kengaytirish uchun [4-ilovadagi](#) 11 ta pedagogika kolleji bino va inshootlari, tegishli mol-mulki bilan birga Hududiy markazlar tasarrufiga o'tkaziladi;

Hududiy markazlar tasarrufiga o'tkaziladigan pedagogika kollejlari faoliyati ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar o'qishini tamomlashi muddatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich tugatiladi va ularning bino va inshootlaridan maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadlarida foydalaniladi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi joriy etiladi.

4. 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini kasbiy rivojlantirishning quyidagi tartibi joriy etilsinki, unga muvofiq:

a) maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini kasbiy ehtiyojlari va malaka toifasidan kelib chiqib tabaqalashgan ta'lim dasturlari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning vertikal tizimi (vazirlik — malaka oshirish muassasasi — ta'lim tashkiloti) yo'lga qo'yiladi;

b) maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarining xodimlari uchun besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda o'tkaziladigan malaka oshirish kurslari joriy qilinadi. Bunda:

rahbar kadrlar uchun malaka oshirish kurslari menejerlik o'quv kurslari uchun joriy etilgan tartib asosida, pedagog va mutaxassis kadrlar uchun — variativ (ixtiyoriy tanlov) va invariant (majburiy) modullardan iborat bo'lgan hamda ularda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari bo'yicha tashkil etiladi;

malaka oshirish kurslarida ta'lim olayotgan tinglovchilar bilimni baholash jarayonlarining pedagog kadrlarga malaka toifasini berish va ularni kasbiy sertifikatlash tizimlari bilan uzviyligi ta'minlanadi;

malaka oshirish kurslari oralig'ida xodimlarning o'zaro tajriba almashish va o'zini o'zi mustaqil rivojlantirishga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish shakllari tashkil etiladi;

v) malaka oshirish tizimi natijalarini baholashning yangi tartibi joriy etiladi va uning doirasida maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi;

g) Prezident maktablarida o'quvchilarni o'qitish, kasb-hunarga yo'naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etiladi.

5. Belgilab qo'yilsinki, 2025-yil 1-yanvardan boshlab pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida malaka oshirishning "Kasbiy rivojlanish soati", tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa, shuningdek, "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda:

"Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini tashkil etish uchun har bir tuman (shahar)da yuqori malakali o'qituvchilar orasidan fanlar kesimida mentor-o'qituvchilar tarkibi shakllantiriladi;

"Kasbiy rivojlanish soati" doirasida fan metodika birlashmalari va mentor-o'qituvchilar tomonidan o'qituvchilarning darslari tahlil qilinadi, ularga metodik yordam ko'rsatiladi, kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar beriladi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" doirasida har bitta fan bo'yicha tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalari tanlanadi va ushbu muassasalarda o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladi;

Institut va Hududiy markazlarda mentor-o'qituvchilar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil etiladi;

mentor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritayotgan fan o'qituvchilariga asosiy ish joyi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktor jamg'armasi hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo'shimcha har oylik ustama haq to'lanadi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) ikki oy muddatda "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini o'tkazish tartibini tasdiqlasin.

6. Belgilansinki, 2024-yil 1-iyuldan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining xorijda malaka oshirish kurslarida o'qiganligi yoki stajirovkadan o'tganligi haqidagi hujjatlari (diplom, sertifikat, guvohnoma va boshqalar) milliy uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida malaka oshirganlik to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadi.

Bunda xorijdagi malaka oshirish kurslari va stajirovkalarga qo'yiladigan talablar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

7. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) 2025-yil 1-yanvarga qadar Institut va Hududiy markazlarga kamida bir nafardan nufuzli xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan chet ellik mutaxassislarni, shuningdek, ushbu muassasalarning metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari metodisti lavozimiga yuqori malakali va tajribali kadrlarni jalb qilsin.

Belgilansinki:

Institut va Hududiy markazlarning metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari metodistlarining bazaviy tarif stavkasi miqdori oliy ta'lim muassasasi ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan katta o'qituvchisining bazaviy tarif stavkasiga tenglashtiriladi;

Institut va Hududiy markazlarning mazkur qarorga muvofiq jalb qilinadigan chet ellik mutaxassislarga Prezident maktablarining xorijiy mutaxassislarga nisbatan joriy etilgan mehnatga haq to'lash shartlari tatbiq etiladi;

Institut va Hududiy markazlarga chet ellik mutaxassislarni jalb qilish va ularning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlarni Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplashga ruxsat etiladi.

8. Institut va Hududiy markazlarga o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun bakalavr darajasiga ega bo'lgan, kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan hamda tegishli xalqaro yoki milliy sertifikatlarni qo'lga kiritgan mutaxassislarni ishga qabul qilishga ruxsat etilsin. Bunda:

Institut va Hududiy markazlarning bakalavr darajasiga ega bo'lgan mutaxassislariga nisbatan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy unvonga yoki ilmiy darajaga ega bo'lmagan assistent o'qituvchilari uchun belgilangan lavozim maoshi qo'llanadi;

bakalavr darajasiga ega bo'lgan mutaxassislarga qo'yiladigan talablar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

9. 2024 — 2027-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash bo'yicha asosiy parametrlar [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

10. Belgilab qo'yilsinki:

Hududiy markazlarda amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun talab etiladigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturida (keyingi o'rinlarda — Dastur) loyiha-qidiruv ishlari uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan ajratiladi;

2024-yilda Hududiy markazlarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan 50 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar Dastur doirasida ajratiladi, 2025-yildan boshlab esa, Dasturni shakllantirishda belgilangan tartibda inobatga olinadi;

Hududiy markazlarda amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlari bo'yicha buyurtmachi etib — Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi "Infratuzilmani rivojlantirish" injiniring kompaniyasi, jihozlash ishlari bo'yicha — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Ta'minot va logistika xizmati" davlat unitar korxonasi belgilanadi.

11. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi sog'lomlashtirish oromgohlari [6-ilovaga](#) muvofiq Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi xodimlari, ilg'or pedagoglar hamda iqtidorli o'quvchilar uchun mo'ljallangan dam olish maskanlari sifatida qayta tashkil etilsin.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) Adliya vazirligi (A. Tashkulov) hamda Kadastr agentligi (F. Pulatov) bilan birgalikda ikki oy muddatda ushbu dam olish maskanlari ustavlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda tegishli kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish choralarini ko'rsin.

12. Belgilansinki, mazkur qaror ijrosini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish 2024-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi, 2025-yildan boshlab esa Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [7-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

14. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) uch oy muddatda:

maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etishga oid Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Institut va Hududiy markazlarga professional, malakali va zamonaviy talablarga javob beradigan ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlar, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni tanlov asosida qabul qilish tartibini joriy etsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib maktabgacha va maktab ta'limi vaziri X.U. Umarova belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q. Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 21-iyun,
PQ-231-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga
1-ILOVA

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining asosiy vazifalari

1) Prezident maktablarida o'quvchilarni o'qitish, kasb-hunarga yo'naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha

to'plangan ilg'or tajribalarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etish;

2) rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, malaka oshirish va qayta tayyorlashning an'anaviy, muqobil, dual va mustaqil shakllarini amaliyotga keng joriy etish;

3) malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni zamon talablari va xorijiy ilg'or tajribalar asosida takomillashtirib borish;

4) kelajak maktabi, uning rahbari va o'qituvchisining modelini yaratish asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, o'quv-metodik faoliyatning ta'lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash;

5) davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining namunaviy o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish va doimiy yangilab borish;

6) umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, xorijiy yetakchi ta'lim tashkilotlari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

7) umumiy o'rta ta'limning dolzarb muammolari yuzasidan turli dastur va loyihalarni amalga oshirish, ilmiy-uslubiy konferensiya va seminarlar tashkil etish;

8) doktorantura yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy xodimlarning kasbiy bilim darajasini doimiy oshirib borish;

9) "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini yuritish va uning faoliyatini takomillashtirib borish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga
2-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha

CHORA-TADBIRLAR DASTURI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbai	Ijro uchun mas'ullar
I. Me'yoriy-huquqiy, tashkiliy va o'quv-metodik bazani takomillashtirish					

1.	Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish tartibini ishlab chiqish.	<p>1. "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda quyidagilarni inobatga olish:</p> <p>malaka oshirish kurslarini tabaqalashtirilgan o'quv reja va dasturlari asosida tashkil etish;</p> <p>malaka oshirish kurslarining o'quv dasturlarini pedagog kadrlarning kasbiy, shaxsiy va jamoaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish;</p> <p>malaka oshirish kurslarining ta'lim mazmuniga xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) bo'yicha modullarni kiritish;</p> <p>malaka oshirish kurslari natijadorligini aniqlashga qaratilgan baholash tizimini joriy etish;</p> <p>malaka oshirish tizimining malaka toifalarini berish va kasbiy sertifikatlash tizimlari bilan uzviylikini ta'minlash;</p> <p>malaka oshirish kurslarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazganlik uchun mehnatga soatbay haq to'lash shartlarini qayta ko'rib chiqish.</p>	2024-yil oktabr	-	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova),</p> <p>Adliya vazirligi</p> <p>(A. Tashkulov),</p> <p>"Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi</p> <p>(A. Xudaykulov),</p> <p>Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi</p> <p>(Yu. Risyukova)</p>
2.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni"ni tashkil etish.	<p>1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini tashkil etish tartibini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning namunaviy dasturini tasdiqlash.</p>	2024-yil dekabr	-	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova),</p> <p>Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi</p> <p>(Yu. Risyukova)</p>
3.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini tashkil etish.	<p>1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy etish tartibini ishlab chiqish.</p> <p>2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy etish bo'yicha buyruqni tasdiqlash.</p> <p>3. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning namunaviy dasturini ishlab chiqish.</p>	2025-yil yanvar	-	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova),</p> <p>Maktabgacha ta'lim agentligi</p> <p>(A. Shin)</p>

4.	Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish.	<p>1. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi xorijiy tajribalarni o'rganish.</p> <p>2. Pedagog kadrlarga kasbiy, jamoaviy, individual kompetensiyalar va xalqaro baholash dasturlariga (PISA, TIMSS, PIRLS) asoslangan zamonaviy metodikalarni o'qitishga qaratilgan variativ va invariant o'quv dasturlarni joriy etish.</p>	2024-yil noyabr 2024-yil dekabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi (A. Xudaykulov), Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi (Yu. Risyukova)
5.	Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi faoliyatini yanada takomillashtirish.	<p>1. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markaziga maktabgacha va maktab ta'limi tizimi pedagog kadrlariga malaka toifalarni berish jarayonlarini tashkil etish, test savollarini ishlab chiqish, bu borada xalqaro ekspertlar bilan shartnomalar tuzish, mahalliy ekspertlar uchun seminar va treninglar tashkil etish va boshqa tegishli ishlarni amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vazifalar belgilash.</p> <p>2. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazining umumiy boshqaruv xodimlarining cheklangan sonini A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari metodistlarining shtat birliklari sonini maqbullashtirish hisobiga 36 nafardan 64 nafargacha yetkazish.</p> <p>3. Pedagog kadrlarni navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganligi uchun undiriladigan yig'imlardan Maktabgacha va maktab vazirligiga o'tkaziladigan qismning 50 foizini Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markaziga yo'naltirish.</p>	Doimiy 2024-yil iyul 2024-yil 1-avgustdan boshlab	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)

6.	A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining tuzilmasini tasdiqlash.	1. Institut va hududiy markazlar, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining tuzilmasini tasdiqlash hamda lavozimlar bo'yicha shtatlar sonini belgilash to'g'risidagi buyruqni qabul qilish. Bunda: jami xodimlarning umumiy (texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar hamda professor-o'qituvchilardan tashqari) cheklangan sonini 738 nafar etib belgilash, shundan ma'muriy-boshqaruv va ilmiy xodimlar uchun 458 nafar, metodik xizmat ko'rsatish va boshqa bo'lim metodistlari uchun 280 nafar shtat birliklarini nazarda tutish; texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarni oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan namunaviy shtatlar va me'yorlar asosida kiritish; boshqaruv xodimlar tarkibida bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassis lavozimlarini ham kiritish.	2024-yil avgust	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
II. Kadrlar salohiyatini oshirish					
7.	A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va hududiy pedagogik mahorat markazlari rahbar va pedagog kadrlarini xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarga maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish.	1. Malaka oshirishga yuboriladigan xorijiy ta'lim muassasalari bilan kelishuvga erishish. 2. Xorijiy ta'lim tashkilotlarining talabidan kelib chiqib, maqsadli ravishda malaka oshirishga yuborish uchun rahbar va pedagog kadrlarni saralash tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Tasdiqlangan tartib asosida saralash jarayonlarini o'tkazish. 4. Saralab olingan rahbar va pedagog kadrlarni maqsadli malaka oshirish kurslariga yuborish.	Har yili 1-iyunga qadar 2024-yil sentabr Har yili oktabr oyida Reja-jadval asosida	Budjetdan tashqari mablag'lar	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari rahbar va professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish.	1. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida ilg'or xorijiy tashkilotlardan trenerlarni jalb qilgan holda malaka oshirish kurslarini tashkil etish. 2. Pedagogik mahorat markazlari rahbar va professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish reja-jadvalini tuzish.	2025-yil yanvar 2025-yil mart	Budjetdan tashqari mablag'lar	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
9.	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari ma'muriy-boshqaruv va pedagog kadrlarining sifat tarkibini yaxshilash.	A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko'rib chiqish va ularni malakali kadrlar bilan to'ldirish.	2024-yil dekabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev)

10.	A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun bakalavr darajasiga ega bo'lgan, kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan hamda tegishli xalqaro va milliy sertifikatlarni qo'lga kiritgan mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash.	1. Institut va Hududiy markazlarda o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun jalb etiladigan bakalavr darajasidagi mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni va ularni muayyan muddatga ishga qabul qilish tartibini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan tartibni manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda tasdiqlash.	2024-yil noyabr 2024-yil dekabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev), Adliya vazirligi (A. Tashkulov)
11.	Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining xorijda malaka oshirish kurslarida o'qiganligi yoki stajirovkadan o'tganligi haqidagi hujjatlarini (diplom, sertifikat, guvohnoma va boshqalar) malaka oshirganlik to'g'risidagi hujjat sifatida tan olish tizimini joriy qilish.	1. Xorijiy ta'lim tashkilotlarining muqobil malaka oshirish shakli sifatida tan olinadigan malaka oshirish kurslari va stajirovkalari ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash. 2. Ro'yxatni yangilab borish.	2024-yil iyul Har yili 1-sentabrga qadar	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

III. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish

12.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini takomillashtirish.	1. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini Elektron hukumatning yagona identifikatsiya tizimiga integratsiya qilish. 2. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasiga malaka oshirishning barcha ta'lim dasturlarini masofadan o'rganish imkoniyatlarini beradigan qo'shimcha funksiya kiritish. 3. Malaka oshirishga oid kontentlar yaratish va "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasiga joylashtirish.	2024-yil dekabr	Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar doirasida	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
13.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi joriy etish.	1. "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi ishlab chiqish. 2. "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturini Elektron hukumatning yagona identifikatsiya tizimiga integratsiya qilish. 3. "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturiga malaka oshirishning barcha ta'lim dasturlarini masofadan o'rganish imkoniyatlarini beradigan funksiya kiritish. 4. Malaka oshirishga oid kontentlar yaratish va "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturiga joylashtirish.	2024-yil dekabr	Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar doirasida	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Maktabgacha ta'lim agentligi (A. Shin)

IV. Ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish

14.	Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish sohasida mavjud ilmiy muammolarni samarali tahlil qilish choralarini ko'rish.	<p>1. Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish sohasidagi ilmiy muammolarni aniqlash bo'yicha yetuk olimlardan iborat ishchi guruhni shakllantirish.</p> <p>2. Ishchi guruh tomonidan pyedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirishning ilmiy muammolari va ularning yechimi bo'yicha tadqiqot mavzulari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Tadqiqot mavzulari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish.</p>	<p>2024-yil oktabr</p> <p>2024-yil dekabr</p> <p>Talab asosida belgilangan muddatlarda</p>	Ilmiy faoliyatga oid dasturlarni amalga oshirish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlovlar natijalari bo'yicha ajratiladigan grantlar	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova),</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(K. Sharipov)</p>
15.	Institut huzurida "Ta'limda menejment", "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi", "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" ixtisosliklari bo'yicha tashkil etilgan ilmiy kengashlar faoliyatini takomillashtirish.	<p>1. Ilmiy kengashlar tarkibini qayta ko'rib chiqish.</p> <p>2. Ilmiy kengashlarning yangi tarkibini Oliy attestatsiya komissiyasida tasdiqlash.</p> <p>3. Ilmiy kengashlar faoliyatini samarali tashkil etish.</p>	<p>2024-yil sentabr</p> <p>2024-yil sentabr</p> <p>Doimiy</p>	-	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova),</p> <p>Oliy attestatsiya komissiyasi</p> <p>(A. Yusupov)</p>
16.	Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining 90 yilligini keng nishonlash ishlarini tashkil etish.	<p>1. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining 90 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish.</p> <p>2. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining tarixi va bugungi kundagi faoliyatiga bag'ishlangan risola nashr etish.</p>	<p>2024-yil noyabr</p> <p>2024-yil dekabr</p>	A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining budjetdan tashqari mablag'lari	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova)</p>
V. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash					
17.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.	<p>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha texnik talablarni ishlab chiqish.</p> <p>2. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pyedagogik mahorat markazlarining o'quv auditoriyalarini zarur mebel jihozlari, axborot-kommunikatsiya texnikalari va STEAM laboratoriyalari bilan ta'minlash me'yorlarini ishlab chiqish.</p> <p>3. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pyedagogik mahorat markazlarini zarur mebel jihozlari, axborot-kommunikatsiya texnikalari va STEAM laboratoriyalari bilan jihozlash.</p>	<p>2024-yil sentabr</p> <p>2024-yil oktabr</p> <p>2025-yil 1-yanvardan boshlab</p>	Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar doirasida	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova),</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari</p>
18.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida situatsion o'quv xona va virtual laboratoriyalarni tashkil etish.	<p>1. Situatsion o'quv xona va virtual laboratoriyalarni jihozlash me'yorlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Situatsion o'quv xona va virtual laboratoriyalarni tashkil etish.</p>	<p>2024-yil avgust</p> <p>2025-yil 1-yanvardan boshlab</p>	Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar doirasida	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(X. Umarova)</p>

19.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi xodimlari, jumladan, pedagog kadrlar hamda iqtidorli o'quvchilar uchun dam olish maskanlari faoliyatini tashkil etish.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi xodimlari, jumladan, pedagog kadrlar hamda iqtidorli o'quvchilar uchun dam olish maskanlari faoliyatini tashkil etish. Bunda normativ-huquqiy hujjat loyihasida: dam olish maskanlariga dam oluvchilarni qabul qilish tartibini; dam olish maskanlarining namunaviy shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlashni nazarda tutish.	2024-yil dekabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Adliya vazirligi (A. Tashkulov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)
20.	Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlar uchun tashkil etilgan o'quv kurslariga tajribali va amaliyotchi mutaxassislarni professor-o'qituvchi sifatida jalb etish.	Professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga tajribali va amaliyotchi mutaxassislarni zaruratga qarab to'liq mehnatga soatbay haq to'lash shartlari asosida jalb etish.	2024-yil 1-iyuldan boshlab	Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar doirasida	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
21.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari hamda direktor lavozimiga nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini baholash hamda baholash natijasi bo'yicha ularga menejerlik sertifikatini berish tartibini ishlab chiqish.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari hamda direktor lavozimiga nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini baholash hamda baholash natijasi bo'yicha ularga menejerlik sertifikatini berish tartibini nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqish. Bunda ushbu sertifikatga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga har oylik 30 foiz miqdorida ustama haq to'lashni nazarda tutish.	2024-yil sentabr	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Adliya vazirligi (A. Tashkulov)

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2025-y., 06/25/73/0389-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga
3-ILOVA

2030-yilgacha maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha erishiladigan

MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

T/r	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Yillar kesimida						Mas'ul ijrochilar
			2025-y.	2026-y.	2027-y.	2028-y.	2029-y.	2030-y.	
I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlari salohiyatini oshirish									
1.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotga ega bo'lgan pedagog kadrlar salmog'i	foizda <i>(jami pedagog kadrlar soniga nisbatan)</i>	35	36	37	38	39	40	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
2.	Malaka oshirish kurslariga har yili jalb etiladigan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlari ulushi	foizda <i>(jami pedagog kadrlar soniga nisbatan)</i>	20	20	20	20	20	20	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

3.	Maktabgacha ta'lim tizimining boshqaruv kadrlari zaxirasiga olingan mutaxassislarni menejerlik kursiga jalb etish salmog'i	foizda (jami zaxiradagi kadrlar soniga nisbatan)	10	20	30	50	75	100	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
4.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlari uchun qisqa muddatli o'quv kurslari, mahorat darslari va trening mashg'ulotlari o'tkazish uchun jalb etiladigan xorijiy mutaxassislar soni	nafar	10	14	16	16	16	16	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
5.	Menejerlik kurslarida malakasi oshirilgan va menejerlik sertifikatlariga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari soni	nafar	500	1 000	1 500	2 000	3 000	4 000	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

II. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlari salohiyatini oshirish

6.	Menejerlik kurslarida malakasi oshirilgan va menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari soni	foizda (jami direktorlar soniga nisbatan)	20	20	20	20	20	20	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
7.	Jahonning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari va maktablariga stajirovkaga yuboriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari soni	nafar	25	25	25	25	25	25	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
8.	Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning muqobil shakllari orqali malakasi oshiriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining ulushi	foizda (jami pedagog kadrlar soniga nisbatan)	2	2	3	3	4	5	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

III. Pedagogik mahorat markazlarini yuqori malakali rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlar bilan ta'minlash

9.	Pedagogik mahorat markazlarining Davlat boshqaruv akademiyasida maqsadli malaka oshirish kurslariga yuboriladigan rahbar xodimlari soni	nafar	5	10	15	20	24	26	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
10.	Pedagogik mahorat markazlariga jalb etiladigan xorijiy mutaxassislar soni	nafar	14	28	42	-	-	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)
11.	Pedagogik mahorat markazlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishning muqobil shakllari asosida malakasi oshiriladigan metodistlari salmog'i	foizda (jami metodistlar soniga nisbatan)	30	35	40	45	50	60	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga
4-ILOVA

Pedagogik mahorat markazlari balansiga o'tkaziladigan pedagogika kollejlarning

RO'YXATI

T/r	Hudud nomi	Kollej nomi	Pedagogik mahorat markazlari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	To'rtko'l pedagogika kolleji	Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi
2.	Andijon viloyati	Asaka pedagogika kolleji	Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi
3.	Jizzax viloyati	Zomin pedagogika kolleji	Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
4.	Qashqadaryo viloyati	Shahrisabz pedagogika kolleji	Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
5.	Namangan viloyati	Namangan pedagogika kolleji	Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi
6.	Samarqand viloyati	Toyloq pedagogika kolleji	Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
7.	Sirdaryo viloyati	Yangiyer pedagogika kolleji	Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
8.	Surxondaryo viloyati	Angor pedagogika kolleji	Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
9.	Farg'ona viloyati	Marg'ilon pedagogika kolleji	Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi
10.	Xorazm viloyati	Xiva pedagogika kolleji	Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi
11.	Toshkent viloyati	O'rta Chirchiq pedagogika kolleji	Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga
5-ILOVA

2024 — 2027-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash bo'yicha

ASOSIY PARAMETRLAR

T/r	Muassasalar nomi	Yangi bino qurish va mavjud binoni rekonstruksiya qilish						Mavjud binoni mukammal ta'mirlash		Jihozlash ishlarining	Moliyalashtirish manbasi	
		jami quvvati (o'rin)	shu jumladan:				dastlabki hisobiy qiymati (mlrd so'm)	jami quvvati (o'rin)	dastlabki hisobiy qiymati (mlrd so'm)	dastlabki hisobiy qiymati (mlrd so'm)	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida	Budget mablag'lar doirasida
			o'quv binosi qurish	oshxona qurish	yotoqxona qurish	mavjud binolarni rekonstruksiya qilish						
2024-yil		650	650	250	200	0	40,0	1 275	4,0	11,0	50,0	5,0
1.	Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi	650	650	100	200		35,0			6,0	41,0	
2.	Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi			150			5,0			2,5	5,0	2,5
3.	Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi							1 275	4,0	2,5	4,0	2,5
2025-yil		875	650	100	150	225	37,0	950	4,1	9,0	48,6	1,5
4.	Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi							950	4,1	1,5	4,1	1,5
5.	Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi	425	200			225	15,0			4,0	19,0	
6.	Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi	450	450	100	150		22,0			3,5	25,5	
2026-yil		450	0	0	0	450	15	2 290	17,5	6,7	35,5	3,7
7.	Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi							720	15,0	2,0	15,0	2,0
8.	Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi	450				450	15,0			3,0	18,0	
9.	Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi							1 570	2,5	1,7	2,5	1,7
2027-yil		950	950	200	300	0	55	845	8	10,8	72,0	1,8
10.	Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi	650	650	100	200		35,0			6,0	41,0	
11.	Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi	300	300	100	100		20,0			3,0	23,0	
12.	Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi							845	8,0	1,8	8,0	1,8
Respublika bo'yicha		2 925	2250	550	650	675	147,0	5 360	33,6	37,5	206,1	12,0

Izoh: yangi binolarni qurish va jihozlash uchun zarur bo'ladigan mablag'larga har yili ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlari va haqiqiy talablar asosida hisob-kitob qilish orqali aniqlik kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga
6-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi xodimlari, ilg'or pedagoglar hamda iqtidorli o'quvchilar uchun mo'ljallangan dam olish maskanlari sifatida qayta tashkil etilayotgan sog'lomlashtirish oromgohlari

RO'YXATI

T/r	Amaldagi nomi	Hudud nomi	Manzili	Yer maydoni (ga)	Tashkil etilayotgan shakli		
					Tashkilot nomi	Tasarruf etuvchi tashkilot nomi	Moliyalashtirish manbai

1.	Respublika Mehribonlik uyi	Toshkent viloyati	Bo'stonliq tumani, "Qizilsuv" MFY	12 ga	Respublika dam olish maskani	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	Respublika budjeti
2.	"Lochin"	Jizzax viloyati	Zomin tumani, "Bog'ishamol" MFY	2,7 ga	Jizzax viloyati dam olish maskani	Jizzax viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	Mahalliy budjet
3.	"Gagarin"	Qashqadaryo viloyati	Qamashi tumani, Yakka archa qishlog'i	5,9 ga	Qashqadaryo viloyati dam olish maskani	Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	Mahalliy budjet
4.	"Qaldirg'och"	Samarqand viloyati	Jomboy tumani, Oqtepa qishlog'i	4 ga	Samarqand viloyati 1-son dam olish maskani	Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	Mahalliy budjet
5.	"Xumor"	Samarqand viloyati	Paxtachi tumani, Xumor qo'rg'oni	1,8 ga	Samarqand viloyati 2-son dam olish maskani	Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	Mahalliy budjet
6.	"Yoshlik"	Samarqand viloyati	Oqdaryo tumani, "Uchtepa" MFY	0,18 ga	Samarqand viloyati 3-son dam olish maskani	Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	Mahalliy budjet
7.	"Qo'qon nafasat"	Farg'ona viloyati	Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Furqat ko'chasi 147-uy	1,1 ga	Farg'ona viloyati dam olish maskani	Farg'ona viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	Mahalliy budjet

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga
7-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorining 6-bandi [birinchi xatboshi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Belgilansinki, Institut Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlari (keyingi o'rinlarda — hududiy markazlar) uchun bosh ta'lim muassasasi hisoblanadi hamda ularning o'quv, metodik va ilmiy faoliyatiga rahbarlik qiladi".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorida:

a) [nomlanishi](#) va [muqaddimadagi](#) "Xalq ta'limi" so'zlari "Maktabgacha va maktab ta'limi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) [1-bandda](#):

"a" kichik bandning [birinchi — uchinchi xatboshilaridagi](#) "xalq ta'limi" so'zlari "maktabgacha va maktab ta'limi" so'zlari bilan almashtirilsin;

"b" kichik bandda:

[birinchi xatboshi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"b) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov) tomonidan";

[ikkinchi xatboshidagi](#) "xalq ta'limi" so'zlari "maktabgacha va maktab ta'limi" so'zlari bilan almashtirilsin;

"v" kichik bandda:

[birinchi xatboshi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"v) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) tomonidan";

[ikkinchi va uchinchi xatboshilardagi](#) "xalq ta'limi" so'zlari "maktabgacha va maktab ta'limi" so'zlari bilan almashtirilsin;

"g" kichik banddagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenbayev), Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov) hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov)" so'zlari "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) hamda Oliy, ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) [3-banddagi](#) "xalq ta'limi" so'zlari "maktabgacha va maktab ta'limi" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) [4-bandda](#):

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o'rinlarda — Institut), Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlari, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining malakasini oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag'lar O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratiladi”;

uchinchi xatboshidagi “Xalq ta'limi vazirligi tomonidan xalq ta'limi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

d) 6-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov) maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari malakasini oshirish kurslarini tashkil etgan oliy ta'lim muassasalariga”;

ikkinchi xatboshidagi “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov)” va “xalq ta'limi” so'zlari tegishincha “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)” va “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

e) 7-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'rtinchi va beshinchi xatboshilardagi “Xalq ta'limi vazirligining” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining” so'zlari bilan almashtirilsin;

j) 8-bandning **ikkinchi — to'rtinchi xatboshilaridagi** “Xalq ta'limi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

z) 9-bandning **ikkinchi, to'rtinchi, yettinchi va sakkizinchi xatboshilaridagi** “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

i) 10-bandda:

uchinchi xatboshidagi “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“hududiy markazlarining rahbarlari va rahbar o'rinbosarlari maktabgacha va maktab ta'limi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi”;

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2024-yil 1-iyuldan boshlab Institut va hududiy markazlar rahbarlari va o'rinbosarlariga — oliy ta'lim muassasasining tegishincha rektori va prorektorlari uchun, tarkibiy bo'linmalar boshliqlariga — oliy ta'lim muassasasi fakultet dekani uchun, bosh mutaxassislariga — oliy ta'lim muassasasi katta o'qituvchisi uchun, yetakchi mutaxassislariga — oliy ta'lim muassasasi assistent o'qituvchisi uchun, professor-o'qituvchilari, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlariga — oliy ta'lim muassasalarining tegishli lavozimlari uchun hamda ilmiy xodimlariga — Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari tatbiq etiladi. Bunda bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan tinglovchilar soni nisbatining cheklangan normativi 1:12 nisbatda belgilanadi”;

quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“moddiy rag'batlantirish maxsus fondlari mablag'lari hisobidan Institut va hududiy markazlarning ma'muriy-boshqaruv, metodist va pedagogik xodimlarini rag'batlantirish davlat boshqaruvi organlari uchun belgilangan shartlarda amalga oshiriladi. Bunda moddiy rag'batlantirish maxsus fondi mablag'lari hisobidan hududiy markazlar xodimlarini rag'batlantirish Institut bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi”;

k) 11-bandning **oltinchi xatboshisidagi** “Xalq ta'limi vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

l) 12-bandda:

uchinchi xatboshidagi “Innovatsion rivojlanish vazirligi” so'zlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi “Xalq ta'limi” so'zlari “Ta'lim” so'zi bilan almashtirilsin;

m) 1-ilovada:

ilova hamda I — V bo'limlar nomidagi tegishli kelishikdagi “Xalq ta'limi” so'zlari tegishli kelishikdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

9-pozitsiyada:

“Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbayev)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

12-pozitsiyada:

“Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligining A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov)” so'zlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

13-pozitsiyada:

“Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

14-pozitsiyaning “Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

15-pozitsiyada:

“Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Moliyalashtirish manbalari” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

18-pozitsiyada:

“Moliyalashtirish manbalari” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

19-pozitsiyaning “Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

20-pozitsiyada:

“Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “Xalq ta'limi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbayev)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

21-pozitsiyada:

“Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “Xalq ta'limi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sodiqov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Shermatov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

22-pozitsiyaning “Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

23-pozitsiyada:

“Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “Xalq ta'limi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov)” so'zlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

n) [2-ilova](#) 2025-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

o) [3-ilovada](#):

[nomidagi](#) “Xalq ta'limi vazirligining A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti” so'zlari “A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti” so'zlari bilan almashtirilsin;

4-pozitsiyada:

“Moliyalashtirish manbalari” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)” so'zlari bilan almashtirilsin;

7-pozitsiyada:

“Ustuvor masalalar” ustunidagi “Xalq ta'limi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

8-pozitsiyada:

“Ustuvor masalalar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligiga” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

11-pozitsiyaning “Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Tashqi ishlar vazirligi (Komilov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Tashqi ishlar vazirligi (Saidov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

13-pozitsiyada:

“Ustuvor masalalar” ustunining uchinchi xatboshisidagi “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)” so'zlari bilan almashtirilsin;

14-pozitsiyada:

“Ustuvor masalalar” ustunidagi “xalq ta'limi” so'zlari “maktabgacha va maktab ta'limi” so'zlari bilan almashtirilsin;

“Mas'ul ijrochilar” ustunidagi “Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov)” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)” so'zlari bilan almashtirilsin;

p) 5-ilovaning [nomlanishidagi](#) “Xalq ta'limi vazirligining A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti” so'zlari “A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti” so'zlari bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5117-son qarori 5-bandi “a” kichik bandining [ikkinchi xatboshisi](#) “davlat oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xarajatlari esa oliy ta'lim muassasalarining” so'zlaridan keyin “, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha davlat ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xarajatlari — kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha davlat ta'lim muassasalarining” so'zlari bilan to'ldirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-290-son [qarorida](#):

a) [7-bandda](#) “Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti (keyingi o'rinlarda — Milliy-tadqiqot instituti)” so'zlari

“Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o'rinlarda — Institut)” so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 9-bandning **birinchi, uchinchi, to'rtinchi va oltinchi xatboshilaridagi** tegishli kelishikdagi “Milliy-tadqiqot instituti” so'zlari tegishli kelishikdagi “Institut” so'zi bilan almashtirilsin;

v) 10-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta'limi vazirligi” so'zlari “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi “Milliy-tadqiqot instituti” so'zlari “Institut” so'zi bilan, “Xalq ta'limi xodimlarining” so'zlari “Rahbar kadrlarning” so'zlari bilan almashtirilsin;

“b” va “g” **kichik bandlardagi** “Milliy-tadqiqot institutining” so'zlari “Institutning” so'zi bilan almashtirilsin;

g) 11-bandning **yettinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlari metodistlarining bazaviy tarif stavkasi miqdori oliy ta'lim muassasasi ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan katta o'qituvchisining bazaviy tarif stavkasi miqdoriga tenglashtiriladi”.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-427-son qaroriga **2-ilovaning** 22-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi PQ-75-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirish bo'yicha **chora-tadbirlar rejasining** 7-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024-y., 07/24/231/0445-son; 29.04.2025-y., 06/25/73/0389-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln
sotimgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha

